

## **IBRATLI RIVOYATLAR**

### **GUMANIST1K GO'YALAR KUYCHISI**

Muhammad Avfiy 1172—1176 yillar orasida Buxoroda tug'ilib, shu yerda tahsil ko'rib, o'sib-ulg'aygan. Uning asli ismi Sa'diduddin Muhammad bo'lsa-da, juda ko'p manbalarda Nuriddin Muhammad deb yuritiladi. Tadqiqotchilar Avfiy hayotini uch qismga bo'lib talqin etadilar: birinchi davr 1172—1201 yillarni o'z ichiga olib, go'daklik va avvalgi tahsil yillari hisoblanadi: ikkinchi davr (1201 — 1220) uning Samarqandga safaridan boshlanib barcha musofirlik yillarini o'z ichiga oladi. Uchinchi davr esa Avfiy o'z asarlarini ijod etgan (1202—1233) yillardir.

Yoshligini Buxoroda o'tkazgan Sa'diduddin Muhammad Avfiy balog'atga yetgach, ilmini oshirish va adibu shoirlar, fozillar bilan uchrashmoq maqsadida Yaqin va O'rta Sharq bo'ylab safar ixtiyor qiladi.

1201 yilda Samarqanddan boshlangan bu safarda shoir O'rta Osiyo va Hindistonning bir qator shaharlari bo'ladi. Bular orasida Xorazm, Marv, Nishopur, Hirot, G'azna, Lohur, Kanboyat, Nahrvolo, Dchli kabi shaharlari bor edi. Bu safarda zamonning ko'pgina hunarmandu donishmandlari bilan muloqotda bo'ladi. Ko'plaridan ilm o'rganadi va o'z davrining bilimdon kishilaridan biri bo'lib yetishadi.

Nihoyat, katta safardan o'z ona yurtiga qaytgan shoir bunda boshlangan mo'g'ul istilosidan qochib, yana Hindistonga ketishga majbur bo'ladi va hayotining oxirigacha u yerda yashab, ijod etadi. U taxminan 1233—1242 yillar orasida u olamdan o'tadi.

Muhammad Avfiydan avlodlar uchun juda muhim asarlar saqlanib qolgan. Bular orasida eng qimmatlisi uning «Lubob ulalbob» («Mag'izlarning mag'zi», 1222) tazkirasi bo'lib, unda olim forsiy tilda she'riyat yuzaga kelgandan boshlab, o'z davrigacha bo'lgan she'riy asariardan namunalar keliiradi va shoirlar haqida ma'lumotlar beradi. Bu tazkira forsiy she'riyat haqida bizgacha yetib kelgan tazkiralarning eng qadimgisi bo'lib, hozirgi kungacha ilk manba sifatida o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Unda nomlari keltirilgan ko'pchilik shoirlarning asarları mo'g'ul talon-toroji natijasida yo'qolib ketgan bo'lib, «Lubob ul-albob» ular haqidagi bordan-bir manbadir.

Avfiy 1223 yilda arab yozuvchisi Abu AM al-Muhassin Attanuhiyning «Al-faraj ba'd ash-shidda» («Qiyinchilikdan keyingi shodlik») asarini arabchadan forsiyga tarjima qiladi. So'ngra o'zida ham shunga o'xshash asar yozish shavqi qo'zg'algan bo'lsa kerakki, 1233 yilda shunday asarini tugallaydi hamda unga <Javome> ul-

hikoyot va lavome' ur-rivoyot» («Hikoyatlar to'plami va rivoyatlar ziyosi») deb nora beradi.

Kitob 2000 dan ortiq hikoyat va rivoyatni o'z ichiga olgan bo'lib. unda «Al-faraj ba'd ash-shidda» kitobidan olingenlari ham talaygina. Kitob to'rt qismdan iborat, lining har qismi o'z navbatida 25 bobga bo'linadi.

Asarning birinchi qismida avliyo va anbiyolar karomatu mo'jizalari, xalifalar tarixiga oid, Ajam tarixiga oid, hokimu arboblar qiyofasiga oid, adolat fazilati va shunga o'xshash mavzulardagi hikoyatlar jam etilgan.

Ikkinci bo'limda esa hayo va tavoze, yumshoqlik, odob, saxovat, lutfu kararri, sabru toqat, shijoat, mchru vafo kabi insoniy xislatlar haqidagi rivoyat va hikoyatlar jamlangan bo'lsa. Uchinchi bo'limda mazkur xuslatiarning aksi bo'lgan hirsu hasad, tama va yolg'onchilik, baxilligu ziqlanlik, zolimlik, xiyonatkorlik va hokazolar qattiq hajv qilinadi. Ayollar ziyrakligi, aqlu zakovati. ularning xushaxloqligj va badaxloqi haqidagi hikoyatlar ham shu bo'limdan joy olgan.

Bu kitobning tarixiy-adabiy ahamiyati shundan iboratki. avvalo, ba'zi tarixiy shaxslar, voqealar, olim va shoirlar haqida manbalar yo'qolib ketgan va faqat shu kitobgina bir ozgina bo'lsa-da, ma`lumotni bizgacha saqlab qolgan, ikkinchidan, Avfiyning sodda, betakalluf til bilan yozilgan bu asarini XII— XIII asr prozasining yorqin haykali desa bo'ladi.

*Sh. Shomuhamedov , filologiya fanlari doktori, professor*

## IBRATLI RIVOYATLAR

Anushervon<sup>1</sup> huzuriga uzoq-yaqindan vakillar kelgan ekan. Anushervon ilmu donishmanda mumloz vaziri Buzurgmchming aqlu zakovatini mchmonlarga ko'z-ko'z qilish niyatida undan:

- Ey, hakim, dunyoda eng yaxshi narsa nima? — deb so'rabdi.
- Dunyoda uch narsadan o'tadigan hech nima yo'q, — debdi Buzurgmchr.
- Nima ekan ular?
- O'lim, ayol va chtiyoj.

Anushervon bu javobdan xijolat bo'libdi va hakim bema'ni gap aytib qo'ydi, deb o'yabdi. Keyin qulay fursat topib bu nima deganining durustroq sharhlab ber, debdi. Shunda Buzurgmchr:

- Ey, shahriyori olam, ayol bo'limganda senga o'x-shagan zot qayerdan tug'ilardi, o'lim bo'limganda otangning sultanati senga tegarmidi, chtiyoj bo'limganda menga o'xshagan odam sening saroyingda turarmidi? — debdi.

\* \* \*

Bir kishi Aflatunga:

- Bir ziyofatda falonchi seni ko'klarga ko'tarib maqtadi va haqqingga ko'p duolar qildi, debdi.

Bu so'zlarni eshitgan Aflatun boshini quyi solib, fikru xayol ummoniga g'arq bo'libdi. Haligi kishi hayron bo'lib:

- Ey hakim, men nima dedimki, bunchalik fikru andishaga ko'milding? — deb so'rabdi.

— Meni sen aytgan so'zlar o'yga toldirgani yo'q. Men qilgan ishlarimni o'ylab turibman. Qanaqa johilona ish qilgan ekanmanki, bu qilmishim u johilga yoqib tushibdi va u meni maqtab yuribdi. Biror ahmoqlik qilmasang, hech bir ahmoq seni maqtamaydi va ko'klarga ko'tarmaydi.

\* \* \*

Yazdijurd sosoniylar sulolasiga mansub kishi bo'lib. Eronning eng g'addor va zolim podshohlaridan hisoblangan. Uning farzandlari voyaga yetmay, nobud bo'laverGANidan podshohning ko'ngli benihoya g'am-anduhga to'libdi. Bir kuni u shunaqayam xushbichim va xushsurat bir o'g'il ko'ribdiki, kelajakda uning shahriyor bo'lishi tashqi qiyofasidan ko'rinish turarkan.

Yazdijurd bu farzandining ham o'lib qolishidan qo'rqib, uni tarbiyalashni arab amiri Nu'mon Munzirga topshiribdi. Nu'mon Munzir Iroq shaharlaridan biri bo'lgan, Ko'fa yaqinidagi bahavo va xushmanzara yerga joylashgan Hira shahrining podshohi ekan.

Otasining amriga binoan go'dakni o'sha shaharga olib borishibdi. Nu'mon mchribon enagalar va g'amxo'r murabbiylar topib, bolaning tarbiyasini o'shalarga topshirmog'i lozim edi. U ko'zga ko'ringan yetuk uch xonadondan uch enaga topibdi. Bulardan biri Arabdan, ikkinchisi Ajam (Fors)dan, uchinchisi Turkdan ekan. Arabning gapga chechanligi, ajamning ochiq ko'ngilligi, turkning shijoati

Bahromgurda mujassamlashibdi. Buning ustiga, uchala tilda ham erkin so'zlasha oladigan bo'libdi.

Nu'mon Munzir uning sharafiga ikkita muhtasham qasr soldirib, biriga Sadir, ikkinchisiga Havarnaq deb ot qo'yibdi. Arab mulki bino bo'lib bunaqangi go'zal imoratni ko'rmagan ekan. Bahrom shu yerda ulg'ayib, kamol topibdi. Shijoat va jasorat bobida shu darajaga yetibdiki, otgan o'qi osmoni falakni teshib o'tar, dushman kallasini tanasidan shartta uzib tashlar ekan.

Nu'mon Munzirning shamolday uchqur, aylanishda yer kurrasи bilan bellashadigan bir oti bor ekan. Bir kun o'sha otni va bir dunyo mol-davlatni Bahromga tortiq qilib:

— Nimani o'zingga loyiq ko'rsang, hammasi seniki, men hech narsani sendan darig' tutmayman, — debdi.

Bahrom uning lutfu marhamatini bir olam uzr va tashakkurlar bilan qabul qilibdi. Shu bilan u mol-davlat va shon-shavkati oshib, hayotini shodu xurramlik hamda kayfu safo bilan o'tkaza boshlabdi.

Unga Bahromgur deb laqab qo'yishining sababi shunda ekanki, bir kuni u Nu'mon bilan cho'lда ov qilib yurganida gurxar (kulon)ga hujum qilib, uni g'ajib tashlamoqchi bo'lib turgan sherga ro'para kelib qolibdi. Shunda Bahrom o'q uzibdi. O'q sherni teshib o'tib, gurxarning qorniga sanchilibdi. Sher ham, gurxar ham o'sha zahoti til tortmay o'libdi. Shundan keyin u Bahromgur laqabini olibdi.

Bahrom ulg'ayib, dovrug'i olamni tutibdi, u otasining xizmatiga bormoqchi, uni ziyyarat qilmoqchi bo'libdi. Bu haqda Nu'mon bilan maslahatlashgan ekan, u:

— Shunday qilsang, savob ish bo'lur edi, — debdi. Senga o'xshagan o'g'il otasining xizmatini bajo keltirishi, uning duosini olishi ham farz, ham qarz. Senga o'xshagan o'g'ildan har qanaqa ota jonini ham ayamasa kerak. Ammo esingda boisinki, sening otang johil va badfe'l odam. Mabodo dilingni ranjitib qo'ysa, xafa bo'lma, ko'nglingga og'ir

olma.

— Mayli, shunday bo'lsa ham, — debdi Bahrom, — yana bir bor uning diydorini ko'rish, jamolidan bahramand boiish ishtiyoqidaman.

So'ng Nu'mon yo'l tadorigini ko'rib, bir qancha e'timodli odamlariga qo'shib uni Madoin shahriga yuboribdi. Bahrom otasining saroyiga kelibdi, ammo otasi unga e'tibor bermabdi. Huzuriga chaqirmabdi ham, iltifot ham ko'rsatmabdi. Uni o'z holiga tashlab qo'yibdi. Bunga Bahromning juda xo'rligi kelibdi.

Bir kuni Bahrom uyqu g'alaba qilib, ustunga suyanganicha pinakka ketgan ekan, otasi bu holni ko'rib darg'azab bo'libdi. Unga qattiq ozor berib zindonga solibdi. Bahrom birmuncha vaqt zindonda yotibdi. Ittifoqo Qaysari Rumning ukasi Madoinga elchi bo'lib kelibdi va bu holdan voqif bo'libdi. Bahrom undan madad so'rabdi. U Yazdijurdga murojaat etib:

— Bu go'dak arablar orasida ulg'aygan, arablarning fe'li atvori hazrati oliylariga ayon: uni ozod qilib, Nu'-monning huzuriga yuborsangiz ko'p savob ish bo'lardi, — debdi.

Yazdijurd Bahromning gunohidan o'tibdi, hech qanaqa lutfu marhamat ko'rsatmasdan, uni Nu'mon oldiga qaytarib yuboribdi.

Nu'mon esa uni zo'r dabdaba bilan kutib olibdi, oyog'i ostiga poyandozlar to'shatibdi. Bahrom boshi osmonga yetib, birmuncha vaqt ni xursandchilik, ayshu ishrat va shikor bilan o'tkazgandan keyin otasining oiimi haqida xabar kelibdi.

Yazdijurdning vafotidan so'ng a'yonu ashrof va sar-lashkarlar yig'ilishib shunday deyishibdi: «Biz Yazdijurdning dastidan juda ko'p jabru zulm, xo'rliklar ko'rdik. Endilikda duolarimiz mustajo bo'lib. lining zo'ravonligidan qutuldik. Arabistonda uning o'g'li bor, lekin u g'addorning naslidan birov podshoh bo'lishini, otasi ko'rsatgan kunlar qayta takrorlanishini xudo ko'rsatmasin».

Ularning orasida sosoniylar davlatining asoschisi. Ardasherning o'g'llaridan Kisro (Xusrav I) bor ekan. Hammalari baravariga ixlos qo'yib, toj-taxtni unga topshirishibdi.

Bahrom bu xabarni eshitib juda xafa bo'libdi, ruhi tushibdi. Shorn shahri pahlavonlaridan lashkar tuzib Madoinga yo'l olibdi.

Eronning kazo-kazolari Bahromning bostirib kela-yotganini eshitib vahimaga tushibdi. fitna qo'zg'alib, xalqning qoni bekorga to'kilishidan tashvishlanishibdi.

Bir guruh arkoni davlat Bahromning oldiga borib, arzi hoi qilishibdi: «Nega kelding?» Biz otang dastidan juda ko'p ranju alamlar chekdik. Endilikda, albatta, uning avlodidan birov bizga podshoh bo'lishini aslo istamaymiz».

Bahrom ularni ochiq chchra bilan qarshi olibdi va shunday debdi: ,

— Otamning adl-insofdan yiroq podshoh bo'lganligi menga maium. Ammo mening istagim, aksincha, dodgoh bo'lish, u nimani yirtgan bo'lsa, o'shani qaytadan tikib, yamash, nimani sindirib tashlagan bo'lsa o'shani qaytadan chegalab, o'z holiga keltirish, u qilgan yovuzliklar uchun sizlardan uzr so'rashdir. Madomiki, shu odamni podshoh qilib ko'targan ekansizlar, sizlarning istaklaringga qarshi borolmayman. Faqat bir iltimos, ertaga podshohlik tojini olib kelib. ikki och shernening o'rtasiga qo'yinglar. Kimki ikki sher orasidan tojni olishga jur'at etsa o'sha odam podshoh bo'lsin.

Bahromning bu so'zlarini eshitgan, maqsadni anglagan, qaddu qomati, husnu jamolini ko'rgan ashrofu a'yonlar qaytib kelib, davlat arkonlariga shunday deyishibdi:

— Bahrom hech kim bilan tenglashtirib bo'lmaydigan bir siymoga o'xshaydi... Ertasiga davlat a'yonlari yig'ilishib majlis qurishibdi va sherxonadan ikki och sherni olib chiqib tojni ularning oldiga qo'yishibdi-da, zanjirlarni yechib yuborishibdi. Podshoh bo'lishi kerak bo'lgan ikki shahzoda — Bahrom bilan Kisro sherlarga yaqinlashibdilar.

Kisro och sherlarni ko'rgach, jon shirin tuyulib, «men uchun jon mulkdan azizroq», debdi.

Bahrom: «Toj havasiga tushgan kimsa boshning bahridan o'tmog'i darkor», deb shaxdam olg'a intilibdi va gurzini olib bo'lib turganlarida, u otdan tushib, bir sakrashda sherlardan biriga minib olibdi-yu, ikkinchisining qulog'idan mahkam ushlab, boshlarini bir-biriga uraveribdi. Miyalarini qatig'i chiqib ketguncha ularni qo'yib yubormabdi.

Shundan keyingina tojni yerdan olib, boshiga kiyibdi. Birinchi bo'lib unga ta'zim qilgan kishi Kisro bo'libdi. Qolganlar ham unga bosh egishibdi. Shunday qilib Bahrom saltanat taxtiga o'tiribdi...

\*\*\*

Xusrav Parvez saltanat taxtiga o'tirib, dil kishvarini mahbubasi Shiringa topshirgandan so'ng, yorug" dunyoni uning ko'zi bilan ko'radigan bo'lib qolibdi. Kunlardan bir kun yaqinlaridan biri unga:

— Shirinni qay darajada sevasan? — deb so'rabdi. Parvez shunday javob beribdi:  
— Mening muhabbatim shu qadar kuchlik, uning biror yomon qilmishi bu muhabbatni zarracha kamaytirolmaydi, yangi fazilati bundan bo'lak oshirolmaydi, visol onlari bundan ortiq xursand etolmaydi, hijron g'ami unutishga majbur qilolmaydi.

\* \* \*

Anushervon hukmronligi davrida ikki darvish uning saroyiga kelibdi va ulardan biri baland tovush bilan:

— Yovuzlik ko'rmayin desang yovuzlik qilma, — debdi. Ikkinchisi:  
— Yaxshilik qilgan kishi hamisha yaxshilik ko'rgay! — debdi.

Anushervon amri bilan birinchisiga ming dinor, ikkinchisiga ikki ming dinor berishibdi. Bu holni ko'rgan mulozim va nadimlar podshohdan: «Ikkalasining ham so'zi bir ma'noni ifodalaydi-ku, nega ikki xil mukofot berding?» deb so'rashibdi.

Anushervon shunday javob beribdi:

— Biri yomonlikni madh etdi, ikkinchisi yaxshilikni. Yaxshilar bilan do'stu hamsuhbat bo'lisdan yaxshi va yomonlar bilan hamnishinu hamtovoq bo'lisdan yomon ish bormi dunyoda.

\* \* \*

Qadimgi Yunonning eng buyuk faylasufi Arastu o'limiga yaqin o'g'lini chaqirib shunday debdi:

— Bolajonim, o'z umrimni ilmu hikmatning sirlaridan voqif bo'lish yo'lida sarf qildim. Ilmu hikmat nuri bilan juda ko'p tugunlarni yechdim, ammo oiimga kelganda chora topolmadim. Senga qiladigan vasiyatim shuki, o'giim, mol-davlat orqasida orttirilgan izzat-obro'da baqo yo'q. Izzat-hurmat, shon-sharaf ilmda. Ilm, orqasida qo'lga kiritgan shon-sharaf fano va zavoini bilmaydi, davlat va siyosatning o'zgarishi unga ta'sir qilmaydi. O'g'lim, shohlar sening otangni ilmi tufayli ulug'lashdi, bo'lmasa, otang ham ular qaramog'idagi bir odam edi. Shohlar tobeligidagi odamlar shohlarga ta'zim qilishadi va sig"inishadi. Obidalar va ma'budalar orasida yer bilan osmoncha farq bor.

Otangning ilmi bo'limganda,

uning podshohlar uchun kitob yuklangan eshakdan farqi qolmasdi. Ularga sig'inadigan va xizmatni bajo keltiradigan bir g'ulom bo'lar edi, xolos. Izzat-chtiromga loyiq bo'lay, nomim abadiy qolsin desang ilm orttir!

\* \* \*

Xusrav I ning vaziri Buzurgmchrdan inson uchun eng zarur narsa nima, deb so'ragan ekanlar, u:

— Tug'ma zchn, — deb javob beribdi.

- Tug'ma zchn bo'lmasa-chi? — deb so'rasalar:
- Odob va ilm o'rgansin, — debdi.
- O'rganolmasa-chi? — deb so'rasalar:
- Mol-davlat, zaru zevar orttirsin, bu ham ko'p ayblarni berkitadi, — debdi.
- Eplolmasa-chi? — debdilar.
- Bo'lmasa sertavoze va seriltifot boisin, bu ham odamning ziynati, — debdi.
- Bu ham qo'lidan kelmasa-chi?
- Unda bunaqa tiriklikdan o'lgan afzalroq, ham odamlar undan qutuladi, ham o'zi o'zidan qutuladi, — debdi Buzurgmchr.

\* \* \*

Somoniylar sulolasining podshohlaridan biri boigan amir Nasr Ahmad Somoniyning muallimi yoshligida ta'lif berayotib. juda ko'p marta adabcho'p bilan urgan ekan.

Amir Nasr: «Biror kun sulton bo'lsam jazosini berarman», deb ko'ngliga tugib qo'ygan ekan.

Bir kecha, yoshlik chog'larini eslab yotganida, muallimi yodiga tushibdi va tun bo'yi unga qanday jazo berish kerakligini o'ylab chiqibdi.

Ertalab g'ulomlardan biriga chorborg'dan bchi daraxti-ning xipchinidan o'n dona kesib kelishni, ikkinchisiga muallimni topib kelishni buyuribdi.

G'ulom muallimning huzuriga boribdi. Muallim:

- Sulton qay vaziyatda meni esiab qoldi? — deb so'ragan ekan, g'ulom shunday debdi:

- Bir g'ulomga chorborg'dagi bchi daraxtidan o'nta xipchin kesib kelishni, mengaesasizni topib olib borishni buyurdi.

Muallim Amir Nasr o'ch olish payiga tushganini anglabdi va yo'lda mevafurushning do'koniga kirib bir dinorga eng yaxshi bchilardan olib, yengiga yashiribdi.

Muallim Nasming huzuriga kirganida, amir xipchinni ko'rsatib:

- Bunga nima deysan? — deb so'rabdi.

- Hozir, — debdi muallim va qo'lini yengiga tiqib haligi bchini olibdiyu podshohga qarab. — umringiz uzoq bo'lsin. bir og'iz so'zim bor, — debdi.

- Ayt, — debdi amir Nasr.

- Mana shu bejirim va xushbo'y meva shu xipchindan hosil boigan...

\* \* \*

Bir kun Xusrav mamlakatni aylanib kelish niyatida yo'lga otlanibdi.

Rikobdor<sup>1</sup> otni olib kelibdi. Xusrav otga minayotganda ayil uzilib, podshoh yerga yiqilibdi.

O'sha zamon miroxo'rni<sup>2</sup> jazolash uchun uni darhol toptirib kelibdi.

Miroxo'r shunday debdi

- Shahriyor, ruxsat eting, bir og'iz so'zim bor, aytib olay, keyin nima qilsangiz ixiyor o'zingizda.

- Ayt, nima demoqchisan? — debdi Xusrav.

— Ey, podshohi olam, siz odamlarning podshosi bo'lsangi/. otingiz otlaming podshosi. Bu bechora ayil ikki podshohning tortishmachog'iga nechuk tob bersin?!

\* \* \*

Bir kun xonsolor<sup>1</sup> Xusravning oldiga dasturxon tuzayotib qo'lidan qadahni tushirib yuboribdi va sharob Xusravning to'niga to'kilibdi.

Xusrav yanada g'azablanib:

— Bu nima qilganing? — deb baqiribdi.

— Arzimas gunohim uchun menga shuncha qattiq jazo beradigan bo'lsang, odamlar seni malomat qilishi, bilmay qilingan kichkina bir gunoh uchun bir xizmatcoming qonini to'kdi. zolim ekan, deyishlari mumkin. Men seni zolimga chiqarishlarini istamayman. Bu ishni qasddan qildim. Jazo beradigan bo'lsang, bilmay qilgan arzimas gunohim uchun emas, ataylab qilgan katta gunohim uchun jazo ber.

\* \* \*

Kirmon podshohiaridan bo'l mish Malik Muhammadning xazina qo'riqchilaridan biri uning huzuriga kelib, bir tush ko'tdim. ruxsat etsalar, aytib bersam, debdi.

Malik Muhammad ijozat beribdi.

Qo'riqchi uzundan-uzun bir tushni aytib beribdi. So'zini tugatgandan keyin podshoh darhol farmoni oliy berib uni xizmatidan ozod qilibdi.

Hamma hayratda qolib:

— Nega bunday qildingiz? — deb so'rashibdi. Shunda podshoh:

— Shunchalik uzundan-uzun tush ko'rish uchun necha soat uxlashi kerak? Bu ahvolda u xazinani qanday qo'riqlaydi? — debdi.

\* \* \*

Bir kun qadimgi Yunonning mashhur hakimi Buqrotni bir bemorning oldiga olib borishibdi. U kasalning tomirini ushlab debdi:

— Shuni bilgilki, men, sen va kasallik uch nafar bo'lamiz, uchalamiz ham bir-birimizga muxolifmiz. Agar sen menga yor bo'lsangu aytganimni qulog'ingda tutsang, ya'ni yemagin, ichmagan degan narsamdan nafsingni tiysang biz ikki tan, ikki jon bo'lamiz, kasallik tanho qoladi va biz uni yengamiz. Ikki jon, ikki tan birlashsa, hamisha bir kishini mag'lub qilishi muqarrardir.

\* \* \*

Oliy rutba shaxslardan biri kelib, Iskandarga falon kishi qizingni sevib qolibdi, debdi.

— Sevsu nima qilay? — debdi Iskandar.

— O'ldirishing kerak! — debdi haligi kishi.

— Birovni sevgani uchun, birovni yomon ko'rgani uchun o'ldirsak, dunyoda odamzoddan nom-nishon qolmaydi-ku!

\* \* \*

Arabistonda ilmu hikmatda benazir Shan degan bir hakim o'zimga o'xshagan biror bilimdon qiz topilmaguncha uylanmayman, deb ahd qilgan ekan. Qayliq axtarib olamni bir necha bor kezib chiqsa hamki, o'ziga munosib yor topolmabdi. Kunlardan bir kun shu niyatda sarson-sargardon bo'lib yurgan ekan, bir odam unga hamroh bo'libdi.

Shan hamrohiga:

— Sen meni ko'tarasanmi yo man seni ko'taraymi? — debdi.

— Ajab betamiz odam ekansan, — debdi hamrohi, — sallamni zo'rg'a ko'tarib yuribmanii seni qanaqa qilib ko'taraman!

Shan indamabdi. Bir oz yo'l yurganlaridan keyin barq urib yashnab turgan bir bug'doyzorga yetibdilar. Shan ekinzorga qarab:

— Bu bug'doyzornig donini yeb bo'lishdimikan? — deb hamrohidan so'rabdi.

— Tozajinni ekansan-ku! Bug'doyi hali o'rib olinmagan narsani qanaqa qilib yeb bo'ladi?!

Yana Shanning nafasi ichiga tushib ketibdi. Bir necha manzil yo'l yurgandan keyin ular tobut ko'tarib borayotgan olomonga duch kelib qolishibdi.

— Bu odam o'ldimikan yo haliyam tirikmikan? — deb Shan yana hamrohidan so'rabdi.

— Astag'firullo, umrim bino bo'lib senga o'xshagan ahmoqni ko'rganim yo'q, janoza o'qilib, qabristonga olib borayotgan o'likni bu tirikmi, o'likmi deb so'raydiya! Qip-qizil ahmoq ham bunaqa savolni bermaydi. Qo'y, menga boshqa gapirma, ahmoqona gaplaringdan ko'nglim ozib ketyapti, — debdi hamrohi.

Shunday qilib ikkalasi «churq» etmay yo'lda davom etishibdi. Yo'lovchi manziliga yetgandan keyin, mayli, bu ham bir musofir ekan, qilgan qo'polligimni ko'nglidan chaqaray, deb Shanni uyiga olib kirib, mchmon qilibdi. O'sha odamning husnu malohat, aqlu farosatda hamma qizlarga dars beradigan qizi bor ekan, qizi dadasidan so'rabdi:

— Hamrohing kim edi, yo'lda nimalarni gaplashib kelding?

— Ey, qizim, — debdi otasi, — qip-qizil bir ahmoqqa ro'baro' kelib qoldim. Kurakda turmaydigan, poyma-poy, mantiqsiz savollami beraverib, toza ta'bimni xira qildi.

— Nima dedi axir? — so'rabdi qizi.

— Men bilan ko'rishishi bilanoq: «Sen meni ko'tarasanmi yo men seni ko'taraymi?\* — deb so'radi. O'zim zo'rg'a borayotgan edim, uni qanday ko'tara olardim, qizim. Bir ekinzorga yetganimizda: «Buning donini yeb bo'lishdimikan?\*

— deb so'rab qolsa bo'ladimi? Uchinchi savoli: qabristonga olib ketishayotgan tobutni ko'rib: «Bu tirikmikan yo o'likmikan?» — deb so'radi.

Qizi otasiga:

— Uning ko'nglini og'ritib, bekor qilibsiz. Bu so'zlar uning juda katta hakim va zo'r bilimdon ekanligidan dalolat beradi.

Birinchi savolning ma'nosi shu: «Yo'lning zahmatini kamaytirish uchun biror narsa so"zlab berasanmi yo men aytib beraymi?» Bu yerning g'allasini yeb bo'lishdimikan deganining ma'nosi shu: bu g'allani ekkan odam biror sudxo'r dan qarzdor bo'lishi, uning qistovidan tezroq qutulish maqsadida, bug'doyni o'rishi

bilanoq to'g'ri bozorga olib borib sotib, qarziga berishi mumkin. Mulo-haza qilib ko'rsang, ekin pishishidan oldin yeb ketilganday bo'ladi. Tobutdag'i murdan'i o'likmi yoki tirikmi, deb so'raganining ma'nosi shu: bu odam o'lganidan keyin yodgorlik sifatida biror farzand yoki shogird qoldirdimikan, eslashga arzigelik biror xayrli ish qildimikan yoxud johil va fosiqligidan, o'lishi bilanoq hammaning esidan chiqdi-ketdimi?

Siz darhol uning oldiga chiqib, uzr aytishingiz, ziyofat qilishingiz, aytgan so'zlarining barisini sharhlab berishingiz kerak, aks holda u sizni johil va ahmoqqa chiqarib qo'yishi mumkin.

Shunda qizning otasi Shan huzuriga chiqib: «Yo'lda men parishonxotirlik qilib savollaringga durustroq javob berolmagandim. Hozir hammasiga birma-bir, batafsil javob berishim mumkin», debdi.

Bungajavoban Shan:

— Bu so'zlar sening tabiatingga mutlaqo xilof. Yaxshisi, ayt-chi, bu so'zlami kimdan o'rganding va bu sirlardan kim seni voqif qildi, — debdi.

Qizning otasi nima deyishini bilolmay, gangib qolibdi va rostini aytishga majbur bo'libdi:

— Husnu malohat va aqlu farosatda tengu timsoli yo'q bir qizim bor, bu so'zlarning mag'zini menga o'sha chaqib berdi, — debdi.

Bu gaplarni eshitgan Shan shuncha yildan beri qidirib yurgan gavharimni endi topdim, deb suyunib ketibdi.

Otasining roziligi bilan qizni nikohJab olibdi va nihoyat murod-maqsadiga yetibdi.

\* \* \*

Horun ar-Rashid tush ko'rsa, o'ttiz ikki tishi tushib ketganmish. Xalifaning kayfi uchib munajjim va muabbir'lami chaqiribdi va ulardan ko'rgan tushining ta'birini so'rabdi.

Shunda muabbirlardan biri:

— Ey, amir al-mo'minin, butun qavm-qarindoshing va urug'-aymog'ing o'lib, o'zing yakkayu yolg'iz qolar ekansan, — debdi.

Horun ar-Rashidning yurak-bag'ri ezilib, sovuq nafasi uchun bu muabbimi yuz darra uringlar, deb farmon beribdi. Bu sovuq karomat ban bir unga orom bermabdi va ertasiga boshqa muabbirni chaqirib, bu tushning ta'birini so'rabdi.

Ikkinchchi muabbir:

— Ey, amir al-mo'minin, xudoyi taolo sizga benihoya umr, beqiyos davlat bergan, siz barcha qavm-qarindosh va avlodningizga nisbatan uzoq umr ko'rар ekansiz, — debdi.

Bu so'zdan Horun sevinib ketibdi va shunday debdi:

— Ikkalasi ham bir gapni aytди, ammo bunisi fikrini odob bilan, chiroyli iboralar topib aytgani uchun yuz dinor mukofotga sazovor bo'ldi, birinchisi tomdan tarasha tushganday qo'pol so'zlar aytib qo'yib yuz darra yedi.

\* \* \*

Hotamtoydan, o'zingdan ham saxiyroq odamni uchratganmisan, deb so'rabdilar.

Hotamtoy:

— Ha, ko'rganman, — deb javob beribdi.

— Qayerda ko'rgansan?

— Cho'lda ketayotganimda uzoqdan ko'zimga ikki xonadan iborat ko'rimsizgina bir kulba, kulbaning oldida bog'lab qo'yilgan bir echki ko'rindi. U yerga yetib borganiimda ot dukurini eshitib, ichkaridan bir mo'ysafid menga peshvoz chiqdi va otdan tushishimga yordam qildi. Bir ozdan keyin uning o'gii kelib ochiq chchra bilan salomlashib. hol-ahvol so'radi. Mo'ysafid o'g'liga qarab:

— Bolam, o'sha echkini bismil qilib taom hozirla, mchmonni ziyofat qilish kerak,  
— dedi.

O'g'li:

— Ijozat bering, awal borib, o'tin terib kelay, — dedi. Mo'ysafid:

— Sen cho'lga borib, o'tin olib kelguningcha vaqt ketadi. Mchmonni och olib o'tirish odobdan emas, — dedi.

Mo'ysafidning ikkita nayzasi bor ekan, o'sha nayzasini tizzasiga urib sindirdi, echkini so'ydi va birpasda ovqat tayyorlab dasturxonga olib kelib qo'ydi.

Uyning uyoq-buyog'iga razm solib qaradim, uning butun bor-yo'g'i shu nayzagina ekan, uni ham mchmonning poyqadamiga nisor qildi.

Choldan, meni taniysanmi, deb so'radim.

Choi:

— Yo'q, tanimayman, — dedi.

— Men Hotamtoy bo'laman, saroyimga kel, bu qilgan yaxshiliklarining hissasini chiqaray, — dedim.

Bunga javoban chol:

— Biz mchmondan ziyofat puli olmaymiz, — dedi va shuncha qilsam ham mendan hech qanday hadya qabul qilmadi.

Men mana shu mo'ysafidni o'zimdan saxiyroq deb bilaman.

\* \* \*

Hotamtoy olamdan o'tgach, ukasi uning o'rnini bosmoqchi, uning ishini davom ettirmoqchi bo'ldi. Hotamtoy gumbaz soldirgan va bu gumbazning yetmishta darchasi bo'lgan ekan. Tilanchilar har kuni gumbaz atrofida tizili-shib, har biri darchaga qo'l cho'zar va Hotam ulaming qo'liga biror nima berarkan.

Hotamtoying vafotidan so'ng ukasi shu gumbaz ichiga kirib o'tirmoqchi bo'libdi. Onasi unga:

— Bolam, bu niyatingdan qayt, sen ikki dunyoda ham Hotam bo'lomaysan, — desa ham qulq solmabdi.

Shundan keyin ona bolasini sinab ko'rmoqchi bo'libdi. Eski kiyim kiyib, gumbazning darchasiga borib qo'l cho'zibdi, birinchi darchasidan keyin ikkinchi, uchinchi darchasiga qo'l cho'zibdi. Hotamning ukasi qo'lni tanib: «Hoy kampir, hozirgina qo'l cho'zgan eding-ku, uchinchi marotaba tilanchilik qilasanmi?» — deb urishib beribdi.

Shunda onasi o'zini tanitib:

— Bolaginam, sening qo'lingdan bu ish kelmaydi, demaganmidim?! Bir kun akangni sinab ko'rish maqsadida men yetmish darchaga yetmish marotaba qo'limni cho'zib, xayr tilaganman va akang mening qo'limni tanigan bo'lsa ham bo'sh qaytarmagan va mulzam qilmagan edi.

Sening fe'lü atvoring akangnikiga mutlaqo qarama-qarshi. Buni men emib yurgan chog'laringdayoq payqa-ganman. Har gal emganingda bir siynamni og'zingga solib ikkinchisini qo'ling bilan mahkam ushlab o'tirar eding. Akang bo'lsa, zo'r lab tirishtirganimga qaramay, chiqarib tashlayverardi. Tabiatlaringning bir-biriga xilofligi o'shan-dayoq ma'lum bo'lgan edi, — debdi kampir.

\* \* \*

Anushervon bir kun shikorga chiqib sahroni aylanib yurgan ekan, yong'oq ko'chati ekayotgan bir cholni ko'rib qolibdi.

— Hoy, mo'ysafid, nima qilyapsan? — deb so'rabdi Anushervon.

— Xudo podshohga uzoq umr bersin, yong'oq ekyap-man, — debdi.

— Sen qari bir odam bo'lsang, bu daraxt qachon voyaga yetib, qachon hosil qiladi?

— debdi.

— Boshqalar ekdilar, biz yedik, biz ekamiz, boshqalar yeyishadi, — debdi chol.

Anushervon bu so'zga tahsin o'qibdi va: «Zch»' — debdi. Agar Anushervonga biror narsa yoqib qolsa: «Zch!» — derkan. Shunda o'sha odamga to'rt yuz dirham pul berisharkan.

Anushervon cholning so'zini eshitib: «Zch!» — degan ekan, unga to'rt yuz dirham berishibdi.

— Hech kimning daraxti men ekkanchalik tez hosil bermagan, — debdi chol. Anushervon yana «zch». debdi.

Mo'ysafidga yana to'rt yuz dirham berishibdi.

— Podshohning nazari tushgani uchun ham bu daraxt bir yilda ikki marotaba hosil berdi, — desa, Anushervon yana «zch», debdi. Yana to'rt yuz dirham berishibdi...

\* \* \*

Qushlar tilidan yozilgan kitob «Latoif ul-ishorat»da shunday deyilgan:  
Bir kun qovog'ari bitta donni ming mashaqqat bilan uyiga tomon sudrab borayotgan chumolini ko'rib:

— Hoy, chumoli, sho'ring qursin, bitta donni deb shuncha zahmat chekasanmi. Kel, mening yemishim, ichishimni tomosha qil, qanday lazzatli taom bo'lmasin, odamlar mendan ortganini yeyishadi. Agar qanotimni yozib bir osmoni falakka uchsam, istagan joyimga borib qo'naman! — deb maqtanibdi.

Keyin u uchib qassobning do'koniga boribdi va qanoradagi go'shtga qo'nibdi.

Qassob qo'lidagi pichog'i bilan qovog'arini bir urgan ekan, ikkiga bo'linib ketibdi. Chumoli kelib arining oyog'idan tortibdi.

Qovog'ari:

— Meni qayoqqa sudrab ketyapsan? — deb so'rabdi.

— Kimki biror yerga hasad ko'zi bilan qo'nsa, uni o'zi istamagan boshqa yerga sudrab ketishadi, — debdi chumoli.

\* \* \*

Buqrot hakim ilmi hikmatda ravnaq topib, shuhrati olamga yoyilgandan keyin uzlatni ixtiyor qilibdi va bir g'orga kirib o'sha yerda yashay boshlabdi. Bir kun podshoh

xastalanib qolibdi va Buqrotni olib kelgani odam yuboribdi.

Buqrot uning iltimosini rad etibdi. Shundan keyin vazirning o'zi Buqrot huzuriga borishga majbur bo'libdi. Vazir bunday razm solib qarasa, Buqrot o't-o'landan libos kiyib, har xil giyohni tamaddi qilib yurgan ekan.

Vazir Buqrotni podshoh qasriga taklif etibdi.

Buqrot shunday debdi:

— Men odamlarning dastidan qochib uzlatni ixtiyor qildim, minba'd podshohlarga xizmat qilmaslikka ahd etdim.

Vazir shuncha yalinsa ham Buqrot so'zidan qaytmabdi. Vazir undan qattiq ranjibdi va massxaraomuz:

— Podshohlarga xizmat qilish qo'lingdan kelganda giyoh yeb o'tirmas eding! — debdi.

Shunda Buqrot kulib:

— Giyoh yeishni uddalay olganingda sen ham pod-shohlarning xizmatini qilmas eding! — debdi.

\* \* \*

Bir kishining ko'ngliga o'g'rilik havasi tushibdi va shu hunarni o'zlashtirishga jazm qilibdi. Unga Nishopur shahriga borsang, bu ishda pixini yorgan bir odam bor, o'sha senga ta'lif beradi, deb maslahat berishibdi.

Havaskor o'g'ri Nishopurga yo'l olibdi, o'sha odamning uyini topib:

— O'g'rilik ilmini mukammal o'rganish maqsadida huzuringga keldim, — debdi.

Ustoz o'g'rilikdan birmuncha dars beribdi, keyin uning oldiga taom keltirib qo'yib:

— Qani, chap qo'ling bilan yegin-chi, — debdi. Havaskor o'g'ri umrida chap qo'li bilan taom yemagan

ekan, ovqatni yeysilmabdi.

Buni ko'rib ustoz o'g'ri shunday debdi:

— O'g'ilginam, sen tanlagan kasb shunday bir kasbki, agar qo'lga tushib qolsang, albatta, o'ng qo'lingdan ayrilib qolasan, o'shanda qiyalib qolmaslik uchun hozirdanoq chap qo'l bilan taom yeishni mashq qilishing kerak.

Bu so'zni eshitib, havaskor o'g'ri birdan o'ziga kelibdi: «Tog'ni tolqon qiladigan shunday qo'lni juvonmarg qilish va undan mahrum bo'lish xavfini tug'diradigan bunday hunarning bahridan kechmoq darkor», — debdi.

\* \* \*

Ko'fa shahrida xasisligi tufayli tillarda doston bo'lgan bir boy o'tgan ekan.

Bir kishi unga, Basrada bchisob mol-dunyosi bo'lgan bir boy bor. Ammo xasislikda sen unga shogird ham bo'lomaysan, debdi.

Ko'falik xasis uni ko'rish, undan ta'lif olish ishtiyoyqida yo'lga tushibdi. Basraga borib, uning oldiga kiribdi va o'zini tanishtiribdi.

Basralik xasis uni mchmon qilmoqchi bo'libdi.

— Xush kelibsan, sen bahuzur o'tirib dam ol, men bozorga borib xarid qilib kelay,  
— deb chiqib ketibdi.

Basralik xasis nowoyning oldiga borib:

— Yaxshi noning bormi? — deb so'rabdi.

— Bugun shunaqangi mazali non yopdimki. mol yog'idan qolishmaydi, — debdi novvoy.

— Molning yog'i nondan lazzatliroq bo'lsa, o'shaning o'zidan ola qolay, — debdi xasis.

Baqqolning do'koniga borib:

— A'lo mol yog'idan bormi? — deb so'rabdi. Baqqol:

— Bugun shunaqangi bir mol yog'i oldimki, ko'rsang xuddi zaytun yog'i deysan,  
— debdi.

— Zaytun yog'i mol yog'idan tozaroq bo'lsa, nega o'shandan olmayin, — deb xasis yog'furushning do'koniga boribdi.

— Zaytun yog'ing bormi? — deb so'rabdi.

— Shunday bir zaytun yog'im borki, tiniqlikda suvdan qolishmaydi, — debdi yog'furush.

— Pulni bekorga sarf qilib nima qilaman, uyimda ikki xum suv turibdi-ku, — deb xasis pulni cho'ntakka solibdi va uyiga qaytib kelibdi.

Ko'falik xasis uni kutib o'tirgan ekan. Basralik xasis kosani suvga to'ldirib, mchmonning oldiga keltirib qo'yibdi.

— Ey, birodar, shundan o'tadigan lazzatli taom yo'q ekan, — debdi u va nowoy, baqqol, yog'furushning gapini aytib beribdi.

Ko'falik xasis:

— Men senga tan berdim, bu ishda sen barcha xasislarga ustoz bo'lising mumkin,  
— debdi va u bilan xayr-xo'sh qilib, chiqib ketibdi.

\* \* \*

Bir kishi qo'shnisi bilan urishib qolibdi. Sababini so'rashgan ekan, shunday javob qilibdi:

— Uyimg'a mchmon kelgan edi, o'sha mchmon kalla-pocha bilan siylashimni iltimos qildi. Men uning iltimosini qondirib, kalla-pocha sotib oldim: mchmon yeb ketdi. Men dushmanlarimni kuydirish maqsadida kallaning suyagini eshigim ustig'a osib qo'yan edim, bu noinsof uni o'g'irlab, odamlar bu kalla yegan ekan, desin deb, o'z darvozasi ustiga osib qo'yibdi. Insof bilan aytinchchi, bu adolatsizlikka qanday chidash mumkin?

\* \* \*

Arastu yoshi yetmishga yetganda barbat<sup>1</sup> chalishni o'rganibdi. Shogirdlari: «Oppoq sochingiz bilan barbat mashq qilgani uyalmaysizmi?» — deb so'rashsa, shunday javob beribdi:

— Davrada o'tirgan odamlar bu hunarni bilgan holda, men ko'zimni mo'Itillatib o'tirsam o'shanda uyat bo'lur edi. Har qanday ilmu hunardan xabardor bo'lish, uni

o'zlashtirish yo'lida tortish mumkin bo'lgan barcha aziyatlarni bilish odamning fazilatidir. Johil kishigina buning ma'nosiga tushunmaydi va foydasini bilmaydi.

Bir kishi sulton Mahmud G'aznaviyning o'g'li — sulton Mas'ud huzuriga arzga kelibdi:

— Ey, sulton, G'ur shahridan kelayotgan edim shahar amiri meni ushlab, bor-yo'g'imni tortib oldi, — debdi haligi odam.

Sulton Mas'udning amriga binoan darhol G'ur shah-rining amiriga noma yozishibdi va jabrdiydaning narsa-larini qaytarib berishini buyuribdi.

Haligi kishi sultonning nomasini olib, G'ur shahri amirining huzuriga boribdi.

Amir bu shaxsning qilmishidan qattiq ranjibdi va olib kelgan nomasini kaltak zarbi bilan o'ziga yediribdi.

Jabrdiyda yana G'aznaga borib, sultonga arzi hoi qilibdi. Yana sultonning farmoyishiga ko'ra kattaroq noma yozishibdi.

Haligi odam sulton Mas'udga qarab:

— Sultonim, ayt, nomani qisqaroq va kichikroq qilib yozishsin, bu gal ham yutishga to'g'ri kelsa, qiynalib o'tirmayin, — debdi.

\* \* \*

Hajdan qaytayotgan bir ziyyoratchi karvondan ajralib qolibdi va cho'lda sarson-sargardon bo'lib yurib, bir manzilga yetibdi.

Ko'rimsizgina bir xonada kampir yakka o'zi yasharkan. Xonaning oldiga bir it bog'lab qo'yilgan ekan.

Hoji kampirga salom beribdi, kampir ochiq chchra bilan alik olib, uni o'tqizibdi.

Ziyyoratchi karvondan qolib ketganini, necha kundan beri sarson-sargardon bo'lib yurganini aytib, biror yegulik narsa so'rabdi.

— Bolam, huv ana, uzoqda ko'rinyayotgan cho'lda juda ilon ko'p; borib ikkitasini ushlab kelsang, pishirib yeymiz, — debdi kampir.

— Men ilonni ushlolmayman, — debdi hoji kampirga hayratomuz qarab.

— Yur, bo'lmasa birga boramiz — debdi kampir va itini olib birga jo'nabdi. Ular ikkovlon. ikki ilonni ushlab kalla va dumini uzib tashlashibdi-da, birpasda pishirib yeyishibdi.

Ziyyoratchi, ochlik g'alaba qilgan ekan, ko'zini chin yumib, ilonni paqqos uribdi, keyin cho'llab suv so'rabdi.

— Mana. uyning oldida buloq bor, ichib kela qol, — debdi kampir.

Hoji borib suvdan ichibdi. Suv nihoyatda sassiq va loyqa ekan.

— Ona, — debdi hoji, — shunday joyda nechuk yashab yuribsan?

— Ey, bolam, — debdi kampir, — dunyoda bundan tinchroq va yaxshiroq yer bormikin? Bahavo va xushmanzara cho'llarni, suv to'la chashmalarni aytmaysanmi?

Bunga javoban hoji shunday debdi:

— Ey, ona, bizning viloyatda oqar suvlar, noz-ne'mat to'la bog'u bo'stonlar, shirin-shakar mevalar, lazzatli taomlar bor. Ilonni yejish mumkin ekanini umrimda eshitmagan edim.

— Shuncha nozu ne'mat bilan yana sizlarga birovning zulmu tahdidi va boju xiroj so'rash xavfi ham bordir? — deb so'rabdi kampir.

— Albatta, — debdi hoji, — podshoh va amirlar bormi, ularning mulozim va gumashtalari fuqaroga zulm qilishi, ulardan boju xiroj to'plashi turgan gap.

— Sizlarning o'sha shirin-shakar nozu ne'matlaring, — debdi kampir, — zo'ravonlarning jabru zulmi ostida zahru zaqqumga aylanadi, mening tinchlik va osoyishtalikda ichayotgan bu zahru zaqqumim o'sha shirin sharbatlardan ming karra totliroqdir.

\* \* \*

Bahromgo'r davrida fazlu hikmatda tengi yo'q bir hakim bor ekan.

Bahrom uning ta'rifini juda ko'p marotaba eshitgan ekan. Bir kuni o'sha hakimni huzuriga chaqirib, har sohada uni imtihon qilib ko'ribdi. Hakim Bahrom bergen barcha savollarga qoniqarli javob qaytaribdi. Bahrom o'zicha: «Buni vazir qilib olsam bo'larkan, lekin avval himmatini va odob-axloqini bir sinab ko'rish kerak», deb o'ylabdi. Hakim bilan bir tovoqdan ovqat yeb ko'rmoqchi bo'lib. oldiga qovurilgan tovuq keltirib qo'yibdi.

Hakim bitta tovuqni zo'r ishtaha bilan yeb, ikkinchisiga qo'l cho'zibdi.

Buni ko'rib Bahrom o'zicha shunday debdi:

— Bu odamning nazari nihoyat past ekan. Mening ko'z oldimda tovuqni shunday yesa, mening yo'qligimda mol-mulkni qanday yerkan?

Natijada hakim badnafs va odobsizligi oqibatida vazirlikdan mahrum bo'libdi.

\* \* \*

O'yinqaroq bir shahzoda otasining vafotidan so'ng yurtni idora qilishni unutib, ayshu ishratga berilibdi va sal vaqtda butun xazinani ko'kka sovuribdi. Bu holdan xabar topgan bir qarindoshi, vaziyatdan foydalanib, mamlakatni bosib olibdi.

Podshohlikka havasi yo'q shahzoda parvo qilmay, toju taxtni topshiribdi-da, o'zi bir guruh tekinxo'rlar bilan yallo qilib yuraveribdi. Oqibatda boryo'g'idan ajralib, kafangado bo'lib qolibdi.

Eski yordo'staridan birortasi uning holidan xabar olmabdi, aksincha, hammasi undan yuz o'giribdi.

Shahzoda har kuni bozor boshiga chiqib o'tirar va otasining g'ulomlaridan biri uning qornini to'yg'izarkan.

Bir kuni ko'chaga chiqib o'tirgan ekan, bezori o'rtoq laridan bir guruhi uni bir mazax qilish niyatida, oldiga kelishibdi.

— Yur, bir aylanib, dam olib kelamiz, — deb taklif qilishibdi. Shahzoda ularning taklifini qabul qilib, birga ketibdi. Boqqa borib sayru tomosha qilishibdi, oshpazga ovqat buyurishibdi. Oshpaz o'choqqa o't yoqib, qozonga go'sht solibdi.

Hamma kayfu safoga berilib ketibdi. Shu chog', tasodifan, bir it kelib, qozondagi go'shtni ilib ketibdi. Bir mahal qarashsa, qozonda go'sht yo'q emish. Bu faqat shahzodaning ishi. chunki necha kundan beri go'shtning aftini ko'rmagani uchun sabri chidamay, bizning ko'zimizni shamg'alat qilib, go'shtni berkitib kelgan. deyishibdi.

Bu malomatdan shahzodaning ko'ngli nihoyatda ranjibdi, go'shtni men yeganim yo'q, deb qasam ichsa ham baribir ishonishmabdi va uni kalaka qilishaveribdi.

Shahzoda, xayoli parishon, u yerdan chiqib ketibdi, bir chekkada o'tirib olib, qon-qon yig'labdi.

Buni eshitgan enagasi uning oldiga kelib:

— Bolajonginam, senga nima bo'ldi? — deb so'rabdi. Shahzoda bo'lган voqeani aytib beribdi.

Kampir unga achinibdi va otasining muhri bosilgan xaritani olib kelib, unga beribdi.

— Bir vaqtlar otang: «Bolamning podshohlik qilishga qurbi yetmaydi, biror kun kelib muhtoj bo'lib qolsa, shu xaritani unga ber», degan edi, — debdi.

Shahzoda xaritaning qatini ochgan ekan, orasidan uchta qog'oz chiqibdi. Birida shunday deyilgan ekan: «Falon bog'da kaptarxona bor, o'sha kaptarxonaga borib, o'sha yerdan falon tomonga yetti qadam yursang, sakkizinchisida o'n ming dirham ko'mib qo'yibman, olib chtiyojingga sarf qil.

Ikkinchi qog'ozda, falon kishiga o'n ming dinor omonat berib qo'yibman, uchinchisida esa, falon mag'ribiyga o'n ming dinor berib qo'yibman, o'sha pullarni shu odamlar-dan olsang, umringning oxirigacha hech kimga muhtoj bo'lmasan», deb yozilgan mish.

Shahzoda bu uch qog'ozni o'qib suyunib ketibdi, darhol boqqa yuguribdi, kaptarxona yonidan o'n ming dinorni, ikki kishidan o'n mingdan yigirma ming dinorni olibdi-da, yana ilgarigiday kayfu safo, ayshu ishratga berilib yuraveribdi.

Shahzodaning ishi yurishib ketganidan xabar topgan eski jo'ralari yana xira pashsha bo'lib uning oldiga kelishibdi, qilmishlariga pushaymon bo'lib undan uzr so'ra-shibdi va u bilan yana apoq-chapoq bo'lib ketishibdi.

Bir kun shahzoda ziyofat beribdi. Bazmga o'sha jo'ralarini ham taklif qilibdi.

Shahzoda, may ichib, sarhush bo'lgandan so'ng, o'tkir olmos bilan bir nechta joyi teshib qo'yilgan bir tegirmon toshini o'ziga yaqinroq yerga keltirib qo'yishlarini buyuribdi va o'zi tashqariga chiqibdi.

Majlis ahli o'sha toshni ko'rib:

— Vo ajabo, bu toshni kim teshib qo'ydi ekan, bunda qandoq hikmat bor ekan, — deb hangu mang bo'lib qolishibdi.

Bu holatni uzoqdan kuzatib turgan shahzoda qaytib kelib, nima gapligini so'rabdi.

— Bu tegirmon toshini kim teshdi ekan, deb taajjublanib o'tiribmiz, — deb javob berishibdi do'stlari.

— Otam zamonida, — debdi shahzoda, — Arabistonidan bir odam birtalay chumoli olib kelgan ekan, o'sha chumolilar tosheshar chumolilar ekan, bu teshiklar o'shalarning hunari.

— Shunday bo'lishi ham mumkin. Biz ham shunga o'xshagan bir gapni eshitgan edik, — deyishibdi o'rtoqlari.

Bu so'zlamli eshitgan shahzoda o'zicha shunday debdi: «Subhanollo, bir burda go'sht uchun o'sha kuni chinakamiga shuncha qasam ichsam hech qaysisi ishonmagan edi. Hozir hech qanday aql bovar qilmaydigan yolg'oni aytsam, hammalari tasdiqlab o'tiribdi. Demak, bularning bari yaxshi kunimgagina

yaraydigan do'stlar ekan. Ammo menga yomon kunimga yaraydigan, nonim uchun emas, jonim uchun do'st bo'ladijan odamlar kerak...»

\* \* \*

Basralik bir boyning bchisob qo'ylari bor ekan. Har kun sovliqlarni sog'dirib sutiga suv qo'shib sotar ekan. Bir kun cho'pon bu holni ko'rib:

— Xo'jam, xiyonat qilma, oqibati yomon bo'ladi, — debdi. Boy baribir unga e'tibor bermabdi.

Kunlardan bir kun poda tog' etagida o'tlab yurganida qattiq sel yog'ibdiyu qo'ylami oqizib ketibdi.

Kechqurun cho'pon qo'ysiz qaytibdi.

— Qo'ylar qani? — debdi boy.

— Ey xo'jam, sutga qo'shgan o'sha suvlaring bari yig'ilib selga aylandiyu qo'ylarni oqizib ketdi, — deb javob beribdi unga cho'pon.

\* \* \*

Xusrav davrida shohlar yeydigan ba'zi bir taomlami fuqaroning yeyishi man qilingan ekan. Agar o'sha taomni qora xalqdan biror kishining yegani ma'lum bo'lib qolsa, qattiq jazolanarkan.

Bir odam podshohga yaqin bir yasovulni mchmon qilibdi va uning oldiga podshohlar yeydigan anvoyi taomlami keltirib qo'yibdi.

Yasovul bu uydan chiqishi bilanoq qog'oz-qalam olib, men falon kishining uyida mchmon bo'ldim, dasturxonga podshohlarga xos anvoyi taomlami keltirib qo'ydi, azbaroyi podshoh hazratlariga ixlosim baland bo'lgani uchun bu hodisani ma'lum qilyapman, deb yozibdi.

Xusrav qog'ozning orqasiga shunday deb yozibdi.

«Bu qilmishing uchun senga aytadigan arzon tahsin-ofarinim yo'q, ammo u odamni podshohlar yeydigan taomni pishirgani uchun emas, balki yomonlikni ravo ko'radigan ko'rnamakni mchmon qilgani uchun jazolayman».

\* \* \*

Hind podshohlaridan bid to'rt pahlavon aka-ukaga katta ixlos va zo'r e'tiqod qo'yan ekan. Ularni o'zi voyaga yetkazibdi. Katta bo'lishgach, ikkitasini nadim, ikkitasini jondor — podshohning shaxsiy qo'riqchisi vazifasiga tayinlabdi, bu to'rt aka-uka, navbat bilan har kecha shohni qo'riqlab chiqisharkan.

Bir kun kechasi, shoh shirin uyquda yotar, aka-ukalardan biri uning yostig'i tepasida qo'riqchilik qilib turarkan. Shu chog' ittifoqo shiftdan bir ilon tushib, o'zin shohning to'shagiga tashlabdi va malikani zaharlashga chogianibdi.

Jondor, nima qilishini bilmay, hayron bo'lib qolibdi. Agar ilon malikani zaharlasa, malika o'lishi, borib ilonni o'ldirsa, shoh uyg'onib ketishi mumkin.

U miltiqning qo'ndog'i bilan ilonning boshiga bitta urib majaqlab, taxtning ostiga tashlabdi. Keyin qarasa, malikaning ko'kragiga jindakkina ilonning zahri tomibdi. Bu zaharni artib tashlamasa malika halok bo'lishi muqarrar. Artib tashlay desa malikaga yaqin borishi mumkin emas.

Jondor etagidan bir parcha yirtib olib miltiq uchiga bog'labdi va o'sha latta bilan astagina ilon zahrini malikaning ko'kragidan artib olibdi.

Shu asnoda podshoh uyg'onib ketibdi va jondor malikaning taxti xobi oldidan ketayotganini ko'rib, ko"ngliga g'ulg'ula tushibdi, vujudini titroq bosibdi, bir amallab yangi jondor kelguncha sabr qilibdi, yangisi kelganda:

— Tezda mening farmonimni bajar, zudlik bilan borib akangning kallasini olib kel, — debdi.

Uka akasining uyiga borib qarasa, u huzur qilib uxlاب yotgan ekan. «Biror gunoh qilganida bunchalik osoyishta. bunchalik tinch uxlamas edi», deb o'ylabdi uka va podshoh oldiga qaytib kelibdi.

— Qani kalla? —deb so'rabdi podshoh.

— Ololmadim, — debdi jondor.

— Nima uchun?

— Esimga bir hikoya tushib qoldi, awal ruxsatingiz bilan shu hikoyani aytib beray, keyin xizmatlarini bajarishga hozirman.

— Ayt, — debdi podshoh.

— Qadimgi zamonda, — deb hikoyasini boshlabdi jondor, — ovga ishqiboz bir podshoh bor ekan, uning semurg'ni ham havodan ushlab kela oladigan burguti bor ekan. O'sha burgutni podshoh hamma narsadan afzal ko'rар ekan. Bir kuni podshoh ov qilib yurib, bir ohuni ko'rib qolibdi. O'z mulozimlari va rikobdoridan ajralib, ohuni quvib ketibdi. Qancha yugurmasin, baribir uni ushlolmay, horib, charchab, chanqab qolibdi.

Podshohning tasma bilan bog'lab qo'ygan jomi bor ekan, o'sha jomni olib, biror quduq yoki biror soya joy qidirib ketibdi. Anchagina yurganidan keyin uzoqda bir daraxt ko'rinibdi. Podshoh o'sha tomonga qarab yo'l olibdi. Daraxt ustida kattakon bir ilon yotgan ekan, podshohni ko'rishi bilanoq zahrini socha boshlabdi.

Podshoh tashnalikdan zaharni suv gumon qilib, jomni tomchining ostiga qo'yibdi. Jom zahardan to'libdi. Podshoh jomni ko'tarib, labiga olib borgan ekan, burgut bir qanot qoqibdi-yu, jomni tushirib yuboribdi. Podshoh burgutdan xafa bo'libdi, ichida uni so'kibdi. Yana jomni daraxt ostiga qo'yib to'ldiribdi va og'ziga olib bormoqchi bo'libdi. Burgut yana bir harakat qilibdi-yu, jomni podshoh qo'lidan tushirib yuboribdi. Podshoh jahli chiqib burgutni yerga urib o'ldiribdi.

Shu chog' rikobdor yetib kelibdi, qarasa burgut o'lib yotibdi, podshoh esa tashnalikdan majolsiz bo'lib o'tiribdi. Darrov obdastani tasmasdan yechib olibdiyu jomni tozalab yuvib, muzdakkina suv quyib, podshohga beribdi, podshoh suvni ichgach, o'ziga kelibdi.

Rikobdor, nega burgutni oidirdingiz, deb podshohdan so'rabdi.

Shunda podshoh:

— Men tashnalikdan majolsizlanib qolgan edim. Havoning namidan ozginagina yig'ib, ichmoqchi bo'l-ganimda, burgut bir harakat qilib, jomni qo'limdan tushirib yubordi, suv to'kilib ketdi. Ikkinci marta yana o'sha namdan ozgina olib ichayotganimda shu harakatni takrorlab, yana jomni ag'darib yubordi. G'azabim qaynab, burgutni olib daraxtga bir urgan edim, o'lib qoldi, — debdi.

Rikobdor daraxtga qarabdi: kattakon bir ilon kallasini osiltirib zahar sochib yotibdi. Podshohga:

— Burgutni bekor nobud qilib qo'yibsiz, qarang, burgut sizni qanday balodan asrabdi. Siz ichmoqchi bo'lgan narsa havoning nami emas, ilonning zahri ekan, — debdi.

Podshoh ilonni ko'rib shunday vafodor qushni bekorga o'ldirganiga pushaymon bo'libdi, yurak-bag'ri ezilibdi, biroq foyda qilmabdi.

Men ham akamning boshini olib kelsam. bordiyu ertaga podshoh bu qilmishidan pushaymon bo'lsa, unda afsus-nadomatning foydasi bo'lmaydi, deb o'yladim.

Bu so'zni eshitib podshoh sukut qilib qolibdi. Shunday qilib uning navbati o'tibdi, uchinchisining navbati kelibdi.

Bunisiga ham podshoh o'sha farmonni berib, o'z birodarining boshini olib kelishni buyuribdi.

Jondor akasining oldiga boribdi, qarasa akasi uqlab yotibdi. Harchand kallasini olishga jazm qilsa ham, qondoshlik mchri g'alaba qilibdi va u qaytib kelibdi.

Podshoh:

— Nima qilding? — deb so'rabdi undan.

— Ey shahriyori olam, farmoningga binoan biro-darimning kallasini olmoqchi edim. biroq bir hikoya esimga tushib qaytib keldim, ijozat bersang naql qilib beray.

— Ayt, — debdi podshoh.

— Badjahl va badhashm bir podshoh bo'lgan ekan, — deb gap boshlabdi jondor, — lekin xudo unga hanuz farzand bermagan ekan. Vaqt-soati kelib unga nihoyat go'zal bir farzand ato qilibdi. Uning ulug' va ma'rifatli zot bo'lib yetilishi qiyofasidan ham bilinib turarkan.

Podshoh go'dakning jussasini ko'rib, ko'ngli xiyla ko'tarilibdi va uning tarbiyasini eng oqil, eng dono kishilarga topshiribdi.

Podshohning bir rosui<sup>1</sup> bor ekan, bo'sh vaqtlarida u o'sha rosu bilan o'ynashni, uning harakatlarini kuzatib o'tirishni sevarkan; bu rosu hamisha shahzodaning beshigi yonida turarkan.

Bir kun enaga qayoqqadir chiqib ketganda, tasodifan kattakon bir ilon shiftdan osilib tushib, beshikka yaqinlashibdi. Buni ko'rgan rosu o'zini ilonga tashlabdi va uzoq olishishdan so'ng ilonni o'ldiribdi.

Doya kelib qarasa rosuning og'zi to'la qon. U yoq-bu yoqqa qaramasdan rosu bolani yeb qo'yibdi, deb dod solibdi, podshohning oldiga yuguribdi.

' Podshoh farzand dog'idan o'zini yo'qotib qo'yib. ko'ziga tushgan bir gurzini olibdi-yu, kelib rosuni urib o'ldiribdi.

Keyin beshikka qarasa, bola tinch uqlab yotgan mish. Kattakon bir ilon beshik oldida o'lib yotgan emish. Shunda bilishibdiki, rosu ilonni o'ldirgan ekan.

Podshoh rosudan ajralganiga ko'p qayg'uribdi, lekin foydasi bo'lmaabdi.

Men ham o'sha podshohga o'xshab pushaymon bo'lmay, deb birodarimning kallasini olmay keldim.

Bu hikoyani eshitgandan so'ng podshoh jondorning akasini chaqirishga rozilik beribdi. O kelgandan keyin podshoh shunday debdi:

— Men kecha seni malikaning taxti oldidan ketayotganining ko'rgan edim. Nahotki podshohlarning g'azab o'ti ozginagina shabadadan ham alanga olishini va bu alangani hech qanday suv o'chira olmasligini bilmasang?!

Bunga javoban yigit shunday debdi:

— Iffat va pokligim tufayli men xatardun qutuldum. Muxlis bandalariga nisbatan podshohning shubha va gumoni o'rinsiz. Agar buni isboti kerak bo'lsa, taxtning ostiga nazar solsinlar, uning qay darajada sodiqligi podshohga ayon bo'lgay.

Podshoh taxtning ostiga qarab ilonni ko'ribdiyu mushfiqu mchribon nadimining sadoqatiga qoyil qolibdi va unga tashakkur bayon etibdi...

Bu hikoyatdan murod shuki. har ishga taammul, sabru bardosh kerak. Sabrsizlik, shoshqaloqlikning oqibati hamisha voydir...

Anushervonning aqlu zakovatli bir vaziri bor ekan, shu vazir bir amirni qo'ilab-qo'litiqlab yurarkan. Amirning aytgani aytgan, degani degan ekan.

Bir kuni o'sha amirning fuqarolaridan bir necha kishi Anushervon huzuriga arzga kelib:

— Sening amiring bizga haddan ortiq jabru zulm qilyapti, bizdan xiroj talab qilyapti, — debdi.

Anushervon o'sha amirni saroya olib kelishlarini buyiiribdi. biroq amir bu xabarni eshitishi bilanoq juftakni uribdi.

Shunda Anushervon uni qo'llab-qo'litiqlab yuradigan vazirni chaqirib unga jazo beribdi.

Hamma hayron qolib:

— Shahriyori olam, gunohkor amirku, siz nega vazirning ta'zirini berdingiz? — desa, Anushervon shundoq javob beribdi:

— Jabrdiyda zolimni bizga yaqin qilgan edi. Musani alamini Isadan oldik deb shuni aytadilar-da! — debdi.

\* \* \*

Hind hakimlarining hikoya qilishicha, to'rt o'rtoq safarga chiqib, yo'lda bir kishiga hamroh bo'lib qoladi. Haligi odamning yonida qimmatbaho gavhar bo'lib, uni bir qutichaga solib olgan va har zamon xavotirlanib, qutichaga bir qarab qo'yari ekan.

To'rttala o'rtoqdan biri bu sirdan voqif bo'ladi va qulay fursat topib qutichani o'g'irlaydi. Qiiticha egasi bir mahal qarasa, quticha yo'q. Juda xafa bo'ladi. Bularga tavallo-tazarro qiladi, hech kim iqror bo'lmaydi. Bechora, tarvuzi qo'ltig'idan tushib, bularga ergashib boraveradi. Nihoyat, bular bir shaharga yetib kelishadi. Gavhar egasining safardan murodi shu shaharga kelish ekan. U darrov podshoh oldiga borib:

— Men xazinangizda yo'q gavharni sizga olib kelayotgan edim, yo'lda to'rt kishiga hamroh bo'lib qoldim, shu to'rt kishi gavharni o'g'irladi, shuncha qilsam ham baribir qaytarib berishmadni, — debdi.

Podshohning amri bilan to'rttalasini qamoqqa oladilar. Shuncha qiyognog'u qistovga olsalar ham hech biri iqror bo'lmaydi. Podshoh shu ishda ojizlik qilib qoladi.

Podshohning husnu latofat va aqlu farosatda tengi yo'q bir qizi bor ekan. Dadasining fikru xayol ummoniga g'arq bo'lganini ko'rib qiz shunday debdi:

— Siz o'sha to'rt kishini menga topshiring, men ilmu hikmat ishlatib, gavhar kimdaligini aniqlayman.

Podshohning amri bilan to'rttala mahbusni qizning huzuriga olib kelishadi. Qizning amri bilan bandilarning oyog'idan kishanlarni yechib, ularga zarbof to'nlar kiygizishadi va keyin ularga:

— Kunda mening huzurimga kelib, jahon hodisalaridan biron narsani naql qilib berasizlar, — deb buyruq beradi.

Kunda ularga sharob berib, yaxshi taomlar bilan siyaydi. Borib-borib ular bilan hamsuhbat bo'lib oladi. Bir kuni qiz ularga shundoq debdi:

— Shu kunlarda juda kamdan-kam sodir bo'ladigan voqeа yuz berib, mushkul bir muammo chiqib qoldi. Biz juda ko'p kishiga murojaat etdik, hech kim bu masalani yecholmadi. Sizlar ko'pni ko'rgan jahongashta odamlar bo'lganlaring uchun shu masalani aqлу idrok bilan yechasizlar, degan umiddaman.

— Marhamat, bajonidil, — deyishadi ular. Podshohning qizi shundoq gap boshlaydi:

— Bor ekan, yo'q ekan, bir podshohning qizi bor ekan. Kunlardan bir kun shu qiz kanizaklari bilan bog'ni aylanib yurgan ekan, tasodifan ko'zi lovillab ochilib turgan bir gulga tushadiyu bu gul unga yoqib qoladi. Bog'bonning o'g'li bundan xabardor bo'lib, o'sha gulni uzib qizga taqdim etadi. O'sha podshoh sultanatida shunday odat bor ekan: kim gul uzib kelsa, istagan maqsadiga yetarkan.

Qiz bog'bonning o'g'lidan:

— Tila tilagingni, — deb so'rabdi. Bog'bonning o'g'li kamoli yoshlik va nodonlikdan:

— Qachon seni erga bersalar, visol bog'ingdan birinchi gulni men uzsam, — deydi.

Shoh qizi bu shartga ko'nadi va ular birbirlari bilan xayrlashadilar.

Birmuncha vaqtdan keyin qizni erga berishadi. Nikoh kechasi qiz kuyov bilan uchrashganda eriga shundoq deydi:

— Men bog'bonning o'g'li bilan ahdu paymon qil-ganman. Va'daga vafo qilmaslik odob-axloqdan emasdир.

Eri ruxsat beradi. Qiz bog' tomonga qarab yo'l oladi. To'satdan ro'parasidan bir sher chiqadi va unga hamla qilmoqchi bo'ladi.

Qiz shunday debdi:

— Sher, bilamanki. ajalga chap berib bo'lmaydi... Ammo go'daklik ayyomimda bog'bonning o'g'li bilan ahdu paymon qilganman, hozir o'sha va'damga vafo etgani ketyapman. Ozgina fursat ber, borib o'sha ahdimga vafo qilib kelay. keyin men sening ixtiyorindaman, nima qilsang qil, — deydi.

Sher bunga ko'nadi. Birmuncha yo'l yurgandan keyin qarshisidan bir o'g'ri chiqadi. O'g'ri qizning husnu jamoli va zebu ziynatini ko'rib: «Oh, xudo berdiku menga!» — debdiyu qizning yo'lini to'smoqchi bo'ladi.

Qiz shunday debdi:

— Agar mard bo'lsang. ruxsat ber, men shu boqqa borib ahdimga vafo qilib kelay, keyin men selling ixtiyo ringda, istasang mana bu zebu ziynatning barisini beraman.

O'g'ri uni qo'yib yuboradi. Qiz boqqa boradi. Bog'bonning o'g'li podshohning qizini ko'rib uning oyog'iga bosh qo'yadi.

**Qiz:**

— Men o'sha ahdimga binoan tanimni senga fido qilgani keldim, — debdi.

Bog'bonning o'g'li yer o'pib:

— Men yoshlik, nodonlikdan o'sha ahmoqona gapni gapirgan edim, siz qayoqdayu men qayoqda, malikam! Eson-omon uyingizga boring, men bu gapning bahridan kechdim, — debdi.

Qiz qaytadi va yo'lda poylab turgan o'g'rige:

— Bog'bonning o'g'li mardlik qilib o'z nasibasidan voz kechdi. Mana endi barcha zaru zevar bilan men sening ixtiyoringga manzilingga yet!

**O'g'ri:**

«Bu qiz, garchi aqli qisqa bo'lsa ham ahdu paymon borasida aql bovar qilmaydigan jasoratni qilibdi. Nahot men shundoq odamga xiyonat qilsam?» — deydiyu qizni qo'yib yuboradi. Qiz sherning oldiga keladi va bo'lган voqeani unga aytib beradi. Sher tilga kirib shunday debdi:

— Shuni bilginki men, sher emas, sher suratiga kirib seni poylab turgan bir ruhoniymen. Modomiki, ahdingga vafo qilbsan, endi seni o'ldirishga hojat yo'q, bor, eson-omon manzilingga yet!

Qiz erining oldiga kelib bo'lган voqeani gapirib beradi. Men shu to'rt kishidan qaysi biri mard ekanini bil-moqchiman.

**Birinchi o'rtoq:**

— Bog'bonning o'g'li mard ekan, bo'lmasa boshiga shunday baxt quishi qo'nadiyu o'z nafsiyi tiyib o'tirar-midi, — debdi.

**Ikkinchisi:**

— Sher madroq ekan, bo'lmasa tabiatan yirtqich va och bo'lishiga qaramasdan halol luqmadan voz kechar-midi, — debdi.

**Uchinchisi:**

— Qizning eri mard ekan, mard bo'lmasa voqeani bilaturib o'z hamiyatini yengib, xotinini bog'bonning o'g'li oldiga yuborarmidi, — debdi.

**To'rtinchisi:**

— O'g'ri madroq ekan, bo'lmasa shuncha zebu ziynatni bahridan o'tarmidi, — debdi.

Suhbat tugagandan keyin podshohning qizi otasi huzuriga borib shundoq debdi.

— Bu to'rt kishining tabiatini bir-biriga mutlaqo qarama-qarshi ekan. Bog'bonning o'g'lini maqtagan odam o'zi xotin-xalajga moyilroq kishi. Sherni maqtagan kishi nafs bandasi, uning kallasida yejish, aysh-ishratdan boshqa narsa yo'q.

Qizning erini maqtagan odam — hamiyatsiz erkak.

O'g'rini mardga chiqargan odam gavhar o'g'risi, chunki har kim o'z hunarini maqtaydi. O'g'rilik va xiyonat uning hunari bo'lgani uchun o'g'rining bu qilmishi ko'ziga mardlik bo'lib ko'rindi.

Shundan keyin o'sha o'g'rini maqtagan odamni qaytadan so'roq qilishadi va gavhar o'shandan chiqadi.

\* \* \*

Muhammad binni Mahmudning «Xalq-ul inson va xulq-ul inson» degan, kitobida shundoq deyilgan:

— O'taketgan xasisning nihoyatda saxiy bir qo'shnisi bor ekan, bu xasis har xil yo'l bilan unga zarar yetkazar va hamisha g'iybat qilib, uning payini qirqish niyatida yurarkan... Bir kuni xasis qui sotib olib, uni juda yaxshi parvarish qilibdi va unga haddan ortiq lutfu marhamatlar ko'rsatibdi. Bir necha marta quliga:

— Men seni bekorga boqib yurganim yo'q, bir hojatim bor, vaqt soati yetsa, shuni albatta chiqarasan, — debdi.

Birmuncha vaqt o'tgandan keyin bir kuni kechasi qulni tomga olib chiqibdi va shundoq debdi:

— Shuni bilginki, men bu qo'shnining dastidan jonimdan to'yanman, biror shikast yetkazay desam niya-tim amalga oshmaydi. Hasaddan na kechasi, na kunduzi halovatim bor. Shuncha vaqtdan beri seni boqib kelganid dan murod shuki, bu kecha meni qo'shnining tomida o'ldirib, o'ligimni hovlisiga tashlaysan. Azon payti jasadimni ko'rgan odamlar uni qotillikda ayblab, qamab yuborishadi va shu bilan uning molu mulki talon-toroj bo'lib ketadi. Men seni ozod qilib, qo'lingga qog'oz, bu shahardan ketishing uchun ellik dinor pul ham beraman. Sen bu pul bilan boshqa yerga borib, uy-joy qilarsan.

Qui bunga javoban shundoq debdi:

— Ey egam, bu ish inson qiladigan ish emas, sen o'lib ketganingdan keyin u o'ldi nimayu o'ljadi nima, — deb shuncha uqtirsa ham bo'lma bdi.

Qui xo'jasining boshini qo'shnining tomida kesib, hovliga tashlaydi. Ertasiga Isfahonga borib o'sha yerda to'xtaydi.

Bu holdan xabardor bo'lgan sultonning odamlari haligi begunoh qo'shnini ushlab hibs qilib qo'yishadi va u birmuncha vaqt qamoqda yotadi. Uning jinoyatini bo'yniga qo'yolmasalar ham, ko'pchilik bag'dodlik uning halolligiga guvohlik bersa ham, baribir uni hibsdan bo'shatmaydilar.

Ancha vaqtdan keyin bag'dodlik bir savdogar Isfahonga boradiyu o'sha qulni ko'rib, u bilan hamsuhbat bo'ladi. Qui o'sha odamning ahvolini so'raydi.

Savdogar haligi begunohning boshiga tushgan kulfatlarni aytadi. Qui xo'jasining qilmishini aytib beradi, savdogarlar unga guvoh bo'lishadi. Bular Bag'dodga qaytib kelgach, bo'lgan voqeani tafsiloti bilan gapirib berib, bir bechorani quruq tuhmatdan qutqazishadi...

Oqillar, shuni bilinglarki, kimki hasadgo'y bo'lsa, hasad o'ti o'z joniga balo bo'ladi.

\* \* \*

«Mulki Ajam tarixi» degan kitobda shunday deyilgan: Eronning afsonaviy podshohlaridan Gushtasp Rumga borib Kustantaniyada manzil qurbanida qo'lida hech vaqosi yo'q ekan. Birovdan biron nima so'rashga izzat nafsi yo'l bermabdi.

Go'daklik chog'larida otasining saroyida bir temirchi bo'lgan ekan. Gushtasp o'sha temirchining pichoq, tig' va uzangi yasashiga havasi kelib, har gal uning oldiga borganida temirchining hunarini zavq bilan tomosha qilarkan.

Kustantaniyada bepul qolganda temirchilarning oldiga borib, «men bu hunarni yaxshi bilaman», debdi.

Uni mardikor qilib olishibdi, kuniga qancha tushsa unga bir qismini berishibdi. Shu tariqa birovga muhtoj bo'lmay o'z tirikchilagini o'tkazibdi. O'z viloyatiga qaytib kelib taxtga o'tirgandan keyin hamma, mol-davlatidan qatti nazar, o'z farzandiga kasbu hunar o'rgatsin, hunari bo'lsa odam hech qachon birovga muhtoj bo'Imaydi, deb farmon beribdi. Al hirfa amon minal faqr<sup>1</sup>, debdilar.

O'g'ilginam, o'rgan hamisha hunar Hunar seni gadolikdan qutqarar.

\* \* \*

O'z zamonida kasbining ustasi bo'lgan bir zargar o'tgan ekan. Tasodifan bir o'lkaning podshohi xazinamdag'i durru gavharlarni kelib ko'rib, saragini sarakka ajratib bersin, deb uni chaqirtiribdi.

Zargar o'sha o'lkaga qarab yo'l olibdi. Xotini homilador ekan, xotiniga qarab:

— Agar o'g'il tug'sang, yaxshi niyat bilan Ro'zbch qo'y, agar qiz tug'ilsa, ixtiyor o'zingda, yoqqanini qo'yaver, — debdi.

Zargar ketgandan keyin vaqt soati yetib lining xotini egizak — ikki o'g'il tug'ibdi. Birini Ro'zbch, ikkinchisini Bchro'z deb atabdi.

Zargar bir yil podshoning xizmatida bo'libdi. Xotini kunda xat yozib, o'zi va bolalari ahvoldidan erini ogoh qilib yuribdi.

Zargar bola-chaqlarini juda sog'inibdi. Bir yildan keyin ruxsat so'rabdi, podshoh ijozat bermabdi.

— Biror ishonzhli odaming bo'lsa yubor, bola-chaqangni olib kelsin, — debdi podshoh.

«Biroz sabr qilay. zaruratsiz uy-joyni tashlab kelishi aqldan emas». debdi zargar o'zicha. Yana bir yil sabr qilibdi. baribir podshoh ijozat bermabdi. Oradan olti yil o'tibdi. Bolalari katta bo'lishibdi, qur'on o'qishni, xat-savod, odob-axloq o'rganishibdi.

Zargar bolalarini juda sog'inibdi, podshoh ijozat bermagach. ularni olib kelgani odam yuborishga majbur bo'libdi.

Ular yo'l tadorigini ko'rib jo'nashibdi. Zargar xizmat qilib yurgan o'lkaga yetganda ular katta bir anhor bo'yida to'xtashibdi. Bolalar suv bo'yiga borib o'ynashibdi.

Tasodifan o'sha kuni zargar ham anhor bo'yini aylanib yurgan ekan, bolalami ko'ribdi-yu, ammo tanimabdi. Suv bo'yida tahorat olibdiyu hamyonini o'sha yerga qo'yib, nariroqqa borib namoz o'qishga kirishibdi.

Qaytib kelib qarasa hamyon yo'q. Mundoq qarasa ikkita bola o'ynab yuribdi.

— Bu yerga oltin hamyon qo'ygan edim. ko'rmadingizmi? — debdi.

Bolalar:

— Yo'q, ko'rganimiz yo'q. — deyishibdi.

— Suv bo'yida sizlardan boshqa hech kim yo'q ediku. oltin hamyonimni qaytarib beringlar, bo'lmasa adablarlingizni beraman, — debdi zargar.

Darhaqiqat, bolalar hamyonni ko'rishmagan edi. shuning uchun inkor qilishibdi.

Zargar jahli tez odam ekan, surishtirmay-netmay ikkala bolani olib suvg'a uloqtirib yuboribdi.

Birmuncha vaqtan kevin bolalarning onasi yetib kelibdi.

Ota:

— Bolalarim qani? — deb so'rasa, ona:

— Suv bo'yiga tomosha qilgani ketishgan edi, —debdı. Ona bolalarining tashqi qiyofasini aytib bergandan

keyin ota yoqasini chok etib, dod-faryod ko'taribdi. Keyin uzoq vaqt bolalarining firoqidan yig'labdi. Zargar shunday debdi:

— Men bu yerga bolalarim tufayli, ulaming rizqu ro'zini toparman deb kelgan edim, endi ularni qoidan bergenimdan keyin yaxshisi bu shahardan ketay.

Zargar saroyga bormasdan boshqa yurtga qarab yo'l olibdi.

Tasodifan to'lqin bolalarni suvdan chiqarib tashlabdi, lekin ikkisini ikki yoqqa!

O'sha shaharning podshohi shikorga chiqqan ekan, mundoq qarasa bir xushro'ygina bola suv bo'yida madorsiz yotgan ekan.

— Kimsan? — deb boladan so'rabdi.

Bola bo'lgan voqeani aytib beribdi. Podshohning yuragi bolaga achibdi va undan:

— Oting nima? — deb so'rabdi.

— Otim Bchro'z, — debdi bola.

— Oting xosiyatli ekan, men seni o'g'il qilib oldim, — debdi podshoh va bolani o'z mulkiga olib ketibdi.

Ikkinci bolani, Ro'zbchni yo'lto'sarlar topib olishibdi va: «Bir savob ish qilib buni sotaylik, tushgan mablag'ga mol olaylik», deyishibdi.

Shu niyat bilan bolani shaharga olib borishibdi. Falakning gardishi bilan o'sha kuni zargar ham shahar bozoriga tushgan ekan. O'g'rilar ham bolani sotgani bozorga olib chiqishgan ekan. Otalik mchri jo'sh urib zargar o'sha kichkina qulbachchani sotib olib, uyiga kelibdi. Ona o'z bolasini ko'rishi bilanoq zargarga:

— Bu sening o'g'ling! — debdi.

Zargarning qalbida otalik mchri jo'sh uribdi. Xursandlikdan:

— Endi bir bolamni topdim, shuning shodiyonasiga podshoh xizmatiga qaytib borsam, savob ish qilgan bo'laman, — debdi-yu, qaytib borib voqeani podshohga aytib beribdi.

Podshoh zargarga mukofot beribdi va uning martabasini oshiribdi.

Zargar o'z ilmini o'g'liga o'rgatibdi, uning siru asrорidan bolani voqif qilibdi. Ro'zbchning ilmi kamolga yetgandan keyin otasi dastmoya berib, uni savdogarchilikka yuboribdi. Ro'zbch tasodifan Bchro'z istiqomat qiladigan va podshoh o'limidan so'ng valiahd e'lon qilingan shaharga borib qolibdi.

Bchro'z bu shaharda podshohlik qilar, fuqaro tinch yashar ekan.

Ro'zbch uning huzuriga kelibdi, lekin ular bir-birlarini tanimabdilar.

Podshoh darrov uning qornini to'yg'izibdi, olib kelgan duru gavharlarini ortiqcha baho berib olibdi, Ro'zbch juda katta foyda ko'ribdi.

Podshoh Ro'zbchga o'z huzurida qolishni taklif qilibdi va tirikchilik uchun barcha keraklik imkoniyatlami muhayyo etishga va'da beribdi.

Ro'zbch shunday debdi:

— Biz fuqaroga shohning xizmati vojibdir, ammo bir narsa to'sqinlik qiladi, u ham bo'lsa ota-onam. Ular menga qaram bo'lub qolgan, ularning xizmatini qilish men uchun ham farz, ham qarz, — debdi, — agar shu xizmat bo'ynimda bo'limganda a'lo hazratga bajonidil mulozim bo'lar edim.

Bunga javoban podshoh:

— Xat yoz, ota-onang bu yerga kelishsin, — debdi. Ro'zbch xat yozib, ota-onasini chaqiribdi va o'zi

podshoh xizmatida bo'libdi. Dabdurstdan dushman lashkari podshohga ko'z olaytirib. uning mamlakatiga hujum qilibdi.

Podshoh askarlari o'sha dushmanqa qarshi kurashgani ketibdi, saroy bo'sh qolibdi.

Bir kecha Bchro'z Ro'zbchni chaqirtiribdi, ular ayshu ishrat qilib o'tirishibdi. Bchro'z uyquga ketganda Ro'zbch shunday debdi:

— Bu kecha posbonlar yo'q, yaxshisi shuki, azongacha uxlamay posbonlik qilib chiqay.

Shu maqsadda qilichini yalang'ochlab, shohning yostig'i tepasida turibdi. Shoh yuborgan lashkar dushmanqa qarshilik ko'rsatolmasdan qaytibdi. Ba'zi lashkarboshilar podshohga odam yubortirib, o'z g'amingizni o'zingiz yeng, deb iltimos qilishibdi. Vakillar kelib ko'rsalarki, shoh uyqudayu Ro'zbch uning boshida qilichini yalang'ochlab turibdi. Bu podshohga qasd qilyapti, deb o'ylab, ular Ro'zbchni qo'l-oyog'ini bog'lashibdi. Bchro'z uyqudan uyg'ongandan keyin ular bu voqeani unga aytib berishibdi.

Podshoh Ro'zbchga shunday debdi:

— Men senga nima yomonlik qildimki, sen menga nisbatan bu ishni ravo ko'rding?

Ro'zbch shunday debdi:

— Podshohimning umrlari uzun bo'lsin, bu kecha posbonlar yo'q edi, biron korhol bo'lmasin deb men tonggacha mijja qoqmay chiqdim. Bu hasadgo'ylarning gaplariga qulq solmang.

— Buni zindonga tashlanglar! — debdi podshoh va o'zi jangga kirib, dushmanni yengibdi. U o'z mulkiga qaytib kelib bilsaki, Ro'zbchning ota-onasi o'g'illarining xatini olgan kuniyoq yetib kelishgan ekan. — O'g'illari hibsda yotganidan ogoh bo'lgach, darrov podshohga, ey podshohi odil, biz g'arib benavolar si/ning huzuringizga panoh istab kelgan edik. Iffi farzandimiz bor edi, biri Ro'zbch, ikkinchisi Bchro'z. Biz bar ikkalasidan ayrildik — ikkalasi ham suvga g'arq bo'lib ketdi. Qancha ranju alamdan key in parvardigor Ro'zbchni qaytarib berdi. ammo ikkinchi o'g'limiz benomu nishon ketdi. Bu yerga kelsak, podshoh o'g'limizni hibsga olibdi. Agar biror gunoh undan sodir boigan bo'lsa, g'aribu benavoligimizni nazarda tutib kechirsangiz, duoi joningizni qilur edik. deb noma yozishibdi.

Bchro'z ularning so'zini eshitgach. ko'zlaridan yosh chiqib. taxtdan tushib, ota-onasining oyog'iga bosh qo'yibdi.

— Sizlarning Bchro'zlarining men bo'laman. zindonda yotgan mening birodarim! — debdi.

Shu on odam yuborib Ro'zbchni zindondan olib keltiribdi, keyin onasini ko'shkka jo'natibdi. Shu-shu qolgan umrlarini ular birga o'tkazishibdi.

Bu voqealasabrsizlik va shoshmashosharlikning oqibatidir. Agar zargar surishtirmay-netmay bolalarini suvga g'arq qilmaganda boshiga shuncha ranju kulfatlar tushmas edi. Agar Bchro'z g'arazli odamlarning so'ziga ishonib. Ro'zbchni qatl qilganda pushaymonlik foyda qilmas edi.

Oqillarga shu ayon bo'lsinkim. biri sabrsizligi oqibatida shuncha ranju alam chekdi, ikkinchisi sabru tahammul natijasida o'z murodiga yetdi.

\* \* \*

Bag'dod ko'chalaridan birida bir sodda odam eshak minib ketayotgan ekan, ketidan bo'yniga qo'ng'iroq osilgan echkisi qo'ng'iroq'ini jiringlatib borar ekan. Uch o'g'ri uni ko'rib qolib, biri:

- Men hozir borib. bu odamning echkisini o'g'irlab kelaman, — debdi.
- Agar sen shu ishni qilsang, — debdi ikkinchisi. — men uning eshagini o'g'irlab kelaman.
- Shu ham ish bo'ptimi. — debdi uchinchisi, — men, hozir uning egnidagi to'nini o'g'irlab kelaman.

O'g'rilardan biri darrov soddaning ketiga tushibdi va qulay fursat topib. qo'ng'iroqni echkining bo'ynidan yechib. eshakning dumiga bog'labdi.

Eshak dumini qimirlatgan sari qo'ng'iroq jiringlayveribdi, sodda odam echki orqada kelyapti. deb o'ylab, bemalol ketaveribdi.

Ikkinci o'g'ri bir tor ko'chaning boshida turib olib:

- Dunyoda ajab sodda odamlar bor-da, — debdi, — hamma qo'ng'iroqni eshakning bo'yniga ossa, bu odam dumiga taqibdi.

Sodda orqasiga qarasa, echkisi yo'q. «Echkimni kim o'g'irladi?» — deb dod solibdi.

O'g'ri soddaga:

- Birov mana shu tor ko'chaga echki yetaklab kirganini hozirgina ko'rib qoldim, — debdi.

Sodda unga:

- Hoy. birodar, umringdan baraka topkur, birpas eshagimga qarab tur. men echkimni topib kelay, — debdi.

— Mayli, — debdi o'g'ri, — lekin tezroq kel. Men shu machitning so'fisman, uzoq qarab turishga fursatim yo'q.

Sodda ko'zdan g'oyib bo'lishi bilanoq o'g'ri eshakni olib qochibdi.

Uchinchi o'g'ri bir quduqning labiga borib otiribdi. Ham echkisi. ham eshagidan ajralgan sodda paydo bo'lishi bilan dod sola boshlabdi. Sodda bu holni ko'rib:

— Hoy birodar, senga nima bo'ldi? — debdi. — Mening echkim bilan eshagimni o'g'irladilaru, sen nega dodlaysan?

— Qo'limdag'i durru javohirlar solingan quticham quduqqa tushib ketdi, o'zim quduqqa tusholmayman. Agar qutichani olib chiqsang. senga o'n dinor oltin beraman, — debdi o'g'ri.

Sodda to'nini yechib quduqqa tushibdi. O'g'ri fursatdan foydalanib, to'nni olib qochibdi.

Sodda quduqning ichidan, bu yerda hech narsa yo'q-ku, deb baqiribdi. Hech qanday javob bo`lmabdi. Quduqdan chiqib qarasa, haligi kishidan nom-nishon yo'q emish.

Sodda odam ikkita cho'pni bir-biriga urib o'tiraveribdi. Odamlar buni ko'rib:

— Hoy birodar, jinni-pinni bo'ldingmi, nega bekordan-bekorga shaqillatib o'tiribsan? — deb so'rashgan ekan, u:

— Nima qilay, mabodo o'zimni ham o'g'irlab ketishmasin deb chtiyot chorasi ni ko'rib o'tiribman, — debdi.

\* \* \*

Bir xasis boy kunlardan birida g'ulomiga:

— Ey, g'ulom, non olib kelib eshikni yopgin, — desa, g'ulomi:

— Xo'jam, xato qildingiz, — debdi g'ulomi. — Eshikni yopginu non olib kelgin, deng!

\* \* \*

Birov payg'ambarlik da'vo qilgan ekan. uni podshoh huzuriga olib kelishibdi. Haligi odam ko'k to'n bilan ko'k salla o'ragan ekan. Podshoh undan:

— Kimsan? — deb so'rasha, u:

— Men payg'ambarman! — debdi.

— Payg'ambar bo'lsang, qanaqa mo'jiza ko'rsatolasan?

— Nima istasang darhol hozir qilaman.

— Unday bo'lsa hozir mening ko'z oldimda qovun ekasan, u palak yozsin, yetilsin, pishsin. Men undan bahra olay.

— Bo'lmasa menga uch kun muhlat ber, — debdi haligi odam.

— Yo'q, shu soatning o'zida men totib ko'rmoqchiman.

— Ey noinsof, o'n sakkiz ming olamni yaratgan parvardigor ham uch oyda qovunni yaratadi-yu, sen menga loaqlal uch kun fursat bermaysanmi?

O'tirganlar kulib yuborishibdi, podshoh uning qiziqchi ekanini bilib unga in'omlar beribdi.

\* \* \*

Ilmi nujumga hushi yo'q bir podshoh hamisha munajjiplarning xatolarini fosh etib, uyaltirib yurarkan.

Bir kun u bir o'g'il ko'ribdi. Podshoh saroydagi uch buyuk munajjimni chaqiribdi va qur'a ochib, o'g'lining qismatini bayon qilishlarini so'rabdi.

Munajjiplardan biri, bu o'g'il o'n beshga kirganda ilon chaqib o'ladi, deb aytibdi.

Ikkinchisi, bu bola o'n beshga kirganda balandlikdan yiqilib o'ladi, debdi.

Uchinchisi, o'sha yoshga yetganda bu bola suvgaga g'arq bo'lib o'ladi, deb bashorat qilibdi.

Podshoh bu gaplarni eshitib, «bittasining so'zi to'g'ri chiqishi mumkin, unda ikkinchi, uchinchingining so'zi mutlaqo xato», — deb o'ylabdi va keyin bu munajjiplarni ko'zdan qochirmaslikka, ularning bashoratlari noto'g'ri chiqsa, sharmanda qilishga ahd qilib qo'yibdi.

Munajjiplar aytgan o'sha mash'um kun kelibdi, podshoh o'g'lini bir mahalla odamga topshirib, ko'z-qulqoq bo'lib turishlarini tayinlabdi. Tepaliklarga chiqish va suvgaga yaqinlashishga yoi qo'ymaslikni buyuribdi.

Bir mahalla odam bolaning muhofazasi bilan band boiibdi. Qiyom payti bola odamlarni g'aflatda qoldirib, uydan chiqibdi, chorborg'da biroz aylanib hovuz bo'yiga borib qolibdi. Hovuz bo'yidagi daraxtda qush uyasi bor ekan. Bola daraxtga chiqibdi-yu, inga qo'l cho'zibdi. Uyada ilon yotgan ekan, bolani chaqib olibdi va bola daraxtdan hovuzga yiqilib g'arq bo'libdi.

Posbonlar yugurib kelishsa, shahzoda allaqachon o'lib yotgan mish. Shu voqeordan keyin podshoh munajjimlarni ranjitmaydigan bo'libdi.